# QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

(2019 yil 1-iyul holatiga)

## Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2019 yilning 1-iyul holatiga 18069 ta korxona va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan (18,4 %) ga o'sgan.

**Ro'yxatdan o'tgan 18069**

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2888 ta (19,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 17625 tani tashkil etgan.

**Faoliyat ko'rsatayotgan 17625**

2019 yilning yanvar-iyun oylarida Qoraqalpoǵiston Respublikasida 2397 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 942 taga ko'pdir.

**Yangi tashkil etilganlar 2397**

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

## (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

**(2019 yil 1-iyul holatiga)**






**O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 18,4% oshgan**

**2019 yilning 1-iyul holatiga 18069 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,4 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 22,5 % savdo, 12,3 % sanoatda, 11,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 11,3 % qurilish, 6,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,6 % tashish va saqlash, 1,9 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,8 % axborot va aloqa hamda 28,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.**

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

**(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**

| | | |
|---|---|---|
| 1 | 2070 | Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi |
| 2 | 2226 | Sanoat |
| 3 | 2039 | Qurilish |
| 4 | 4071 | Savdo |
| 5 | 840 | Tashish va saqlash |
| 6 | 1107 | Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar |
| 7 | 333 | Axborot va aloqa |
| 8 | 339 | Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar |
| 9 | 5044 | Boshqa turlar |

# Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar

**(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**

**(2019 yil 1-iyul holatiga)**

Faoliyat ko’rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 17625 tani tashkil etib, o’tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2888 ta (19,6 %) ga o’sgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %

**(dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari)**



# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko’p Nukus shahri (5548 ta), To'rtko'l (1742 ta), Beruniy (1450 ta), Amudaryo (1315 ta) va Ellikqal'a (1117 ta) tumanlari hissasiga to’g'ri keladi. Aksincha Taxtako'pir (306 ta), Mo'ynoq (355 ta) hamda Shumanay (434 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

**2019 yil yanvar-iyun oylarida 2397 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 942 taga ko'pdir.**

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %

Savdo
35,0 %

Sanoat
19,8 %

Qurilish
16,1 %

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
6,6 %

Tashish va saqlash
2,8 %

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
7,7 %

Axborot va aloqa
2,1 %

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
1,9 %

Boshqa turlar
8,0 %

Yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (839 ta), sanoat (474 ta), qurilish (385 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (184 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kami esa tashish va saqlash (66 ta), axborot va aloqa (50 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (45 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

| | |
|---|---|
| Qishloq , o'rmon va baliq xo'jaligi | 184 |
| Tashish va saqlash | 66 |
| Sanoat | 474 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 159 |
| Qurilish | 385 |
| Axborot va aloqa | 50 |
| Savdo | 839 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 45 |
| Boshqa turlar | 195 |

# Hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Nukus shahri (713 ta), To'rtko'l (258 ta), Amudaryo (195 ta) va Beruniy (165 ta) tumanlari hissasiga to’gri keladi. Aksincha, Qorao'zak (65 ta), Shumanay (64 ta) hamda Taxtako'pir (26 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko’rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar yanvar-iyun oylariga yillar kesimida, birlikda**





# Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019 yil 1-iyul holatiga)

**Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 14040 tani tashkil qildi.**

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda

**Mas'uliyati cheklangan jamiyati**

9713

**Xususiy korxona**

3103

**Oilaviy korxona**

914

**Unitar korxona**

133

**Aksiyadorlik jamiyati**

29

**Boshqalar**

148

# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar

2019 yil 1-iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 135 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 42 taga yoki 45,2 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi, Janubiy Koreya Respublikasi va Turkiya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

## (2019 yil 1-iyul holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.

135

O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati %




**2017-yil** **2018-yil** **2019-yil**

**Asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.**



# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda

| | |
|---|---|
| 39 | Xitoy Xalq Respublikasi |
| 19 | Rossiya Federatsiyasi |
| 18 | Qozog`iston Respublikasi |
| 10 | Janubiy Koreya Respublikasi |
| 6 | Turkiya Respublikasi |
| 43 | Boshqa davlatlar |

## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda



**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko’rsatayotgan korxonalarning 79 tasi qo’shma, 56 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to’g'ri keladi.**








## Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




**Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Nukus shahrida 27 ta (jamidagi ulushi 20,0 %), Mo'ynoq tumanida 20 ta (14,8 %) va Taxiatosh tumanida 10 tani (7,4 %) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Xo'jayli va To'rtko'l tumanlarida 3 tadan (2,2%), Chimboy tumanida 4 ta (3,0 %) va Ellikqal'a tumanida 5 ta (3,7 %) tashkil etgan.**

# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda

**34**
**Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi**

**2**
**Tashish va saqlash**

**62**
**Sanoat**

**3**
**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish**

**Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 135 tani tashkil etdi.**

**4**
**Qurilish**

**3**
**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**

**22**
**Savdo**

**5**
**Boshqa turlar**

**Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri keladi.**



# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



Yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlar

2019 yilning yanvar-iyun oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 20 tani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nasbatan 6 ta korxonaga ko'paygan.

Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida 5 ta, Qozog’iston Respublikasi 5 ta, Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkmaniston Respublikasi hamda Britaniyaning Virginiya Orollari - 2 tadan, Afg'oniston Respublikasi hamda Turkiya Respublikasi - 1 tadan korxonalar yangi tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni, birlikda

| | |
|---|---|
| **Savdo** | 7 |
| **Sanoat** | 5 |
| **Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi** | 4 |
| **Qurilish** | 2 |
| **Tashish va saqlash** | 1 |
| **Sog’liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish** | 1 |



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan savdo 7 ta , sanoat 5 ta, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi 4 ta, qurilishda 2 ta, tashish va saqlash hamda sog’liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish 1 tadan faoliyat turlari hissasiga to’g’ri keladi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko’rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning yillar kesimida soni, birlikda








2019 yil 1-iyul holatiga respublikamizda faoliyat ko’rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 13965 tani tashkil etgan. Bu ko’rsatkich o’tgan yilga nisbatan 24,1 % ga oshgan.

2019 yil yanvar-iyun oylarida 2306 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o’tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 1160 taga ko’proqdir.

# Faoliyat ko’rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamiga ulushi, %

| •Eng katta ulushi | •Eng kichik ulushi |
| --- | --- |
| •Nukus shahri 33,5 % | •Chimboy tumani 3,3 % |
| •To'rtko'l tumani 10,6 % | •Qorao'zak tumani 2,9 % |
| •Beruniy tumani 8,3 % | •Taxiatosh tumani 2,8 % |
| •Amudaryo tumani 7,2 % | •Kegeyli tumani 2,7 % |
| •Ellikqal'a tumani 6,2 % | •Qonliko'l tumani 2,4 % |
| •Qo'ng'irot tumani 5,5 % | •Shumanay tumani 2,2 % |
| •Xo'jayli tumani 4,9 % | •Mo'ynoq tumani 1,9 % |
| •Nukus tumani 4,3 % | •Taxtako'pir tumani 1,3 % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, %




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan jami 13965 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3955 ta (28,3 %) - savdo, 2150 ta (15,4 %) - sanoat, 2001 ta (14,3 %) - qurilish, 1913 ta (13,7 %) - qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 1078 ta (7,7 %) - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasi, 812 ta (5,8 %) - tashish va saqlash, 280 ta (2,0 %) - axborot va aloqa sohasi, 240 ta (1,7 %) - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek, 1536 tasi (11,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi.




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 839 ta, sanoat 474 ta, qurilish 384 ta va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 182 ta tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda 66 ta hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda 28 ta tashkil etilgan.

# Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Nukus shahri (683 ta), To'rtko'l (248 ta), Amudaryo (193 ta), Qo'ng'irot hamda Beruniy (152 tadan) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Taxtako'pir (25 ta), Shumanay (63 ta) hamda Qorao'zak (64 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

# Oilaviy korxonalar sonining o‘sish dinamikasi, birlikda

(2019 yil 1-iyul holatiga)







## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimida soni, birlikda



# Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,%




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 27,1 % yoki 248 tasi sanoat, 26,4 % yoki 241 tasi savdo, 26,1 % yoki 239 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 6,6 % yoki 60 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 2,1 % yoki 19 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 2,0 % yoki 18 tasi axborot va aloqa, 0,8 % yoki 7 tasi qurilish, 0,5 % yoki 5 tasi tashish va saqlash hamda 8,4 % yoki 77 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**Statististik registrlarni yuritish bo'limi.**

**Tel.:71-230-82-23(24)**